

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.U.Nurmatova	
Yusuf Hamadoniy- tasavvuf ta'limotining yirik namoyandasi, mutasavvuf olim	428
S.Q.Qaxxorova	
Yoshlar ma'naviy salohiyatini oshirish ularni Vatanparvarlik ruxida tarbiyalash istiqbollari.....	432
A.E.To'liqinov	
Janubiy Farg'ona kanali suvining tabiiy-geografik tavsifi	437
Sh.T.Abbosova	
Yurtimiz taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlashda milliy g'oya strategiyasining istiqbollari	442
M.Мирзарахим	
Роль педагогических стратегий в интеграции искусственного интеллекта.....	448
B.A.Talapov	
Yangi O'zbekistonda inson huquqlari: xalqaro standartlar va milliy qonunchilik uyg'unligi	454
Z.Y.Adilov	
Mahmud Az-Zamaxshariy ma'naviy merosining falsafiy tahlili	459
D.D.Boymirzayeva	
Bo'lajak ta'lim menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirish va uning tashkiliy-boshqarish mexanizmlarini modernizatsiyalash.....	464
I.I.Soliyev	
Oliy ta'lim muassasalarida institutsional mustaqillik tamoyillarini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish vazifalari	468
Z.M.Mamatov, A.A.Ibragimov, O.M.Nazarov	
Quyong'o'shti aminokislota tarkibini o'rganish.....	472
Z.M.Mamatov, A.A.Ibragimov, O.M.Nazarov	
Quyong'o'shimcha mahsulotlarining mineral tarkibini o'rganish.....	477
O.O.Isaqov	
Talabalarda ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik tashxisi	483



UO'K: 378.014.15

BO'LAJAK TA'LIM MENEJERLARIDA IJTIMOYIJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISH VA UNING TASHKILIY-BOSHQARISH MEKANIZMLARINI MODERNIZATSIYALASH**ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОГО ТВОРЧЕСТВА У БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ ОБРАЗОВАНИЯ И МОДЕРНИЗАЦИЯ ЕГО ОРГАНИЗАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ****FORMATION OF SOCIAL CREATIVITY IN FUTURE EDUCATIONAL MANAGERS AND MODERNIZATION OF ITS ORGANIZATIONAL AND MANAGEMENT MECHANISMS**

Boymirzayeva Dilbar Dmitrievna 
Namangan davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak ta'lim menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirishning tashkiliy va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari va ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak ta'lim menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirish vazifalari o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak ta'lim menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirishning tashkiliy va boshqarish mexanizmlarini modernizatsiyalash imkoniyatlari tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье на основе передового зарубежного опыта изучаются теоретико-методологические основы совершенствования организационно-управленческих механизмов формирования социальной креативности будущих менеджеров образования и задачи формирования социальной креативности будущих менеджеров образования. Также были проанализированы теоретические аспекты формирования социальной креативности у будущих менеджеров образования.

Abstract

In this article, the theoretical and methodological foundations of improving the organizational and management mechanisms for the formation of social creativity in future educational managers and the tasks of forming social creativity in future educational managers are studied based on advanced foreign experiences. Also, theoretical aspects of the formation of social creativity in future educational managers were analyzed.

Kalit so'zlar: tamoyil, mexanizm, takomillashtirish, nazariy-metodologik asos, xalqaro standartlar, akademik, marketing, menejment, integratsiya, prognozashtirish, globalashuv, funksional, menejer, ijtimoiy ijodkorlik, modernizatsiyalash, avtoritar, liberal-demokratik, ilmiy-tashkiliy, konseptual-pedagogik, iyerarxik.

Ключевые слова: принцип, механизм, совершенствование, теоретико-методологическая основа, международные стандарты, академический, маркетинг, менеджмент, интеграция, прогнозирование, глобализация, функциональный, менеджер, социальное творчество, модернизация, авторитарный, либерально-демократический, научно-организационный, концептуально-педагогический, иерархический.

Key words: principle, mechanism, improvement, theoretical-methodological basis, international standards, academic, marketing, management, integration, forecasting, globalization, functional, manager, social creativity, modernization, authoritarian, liberal-democratic, scientific-organizational, conceptual-pedagogical, hierarchical.

KIRISH

Bugungi kunda bo'lajak kadrlarda ijobiy kompetentlikni rivojlantirish masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Chunki modernizatsion jamiyatlarda jamiyat a'zolarini va kadrlarini kasbiy salohiyatini rivojlantirish bilan birga ulardagi kreativlikni ham o'stirish, ularning ijodiy faoliyatga yo'naltirish zarurati ortib bormoqda. Bunga sabab axborot texnologiyalari rivojlangan postindustrial jamiyatlarda bilimning o'zigina emas, kreativlik, innovatsiymalar, umuman olganda yangicha fikrlash tarzi ham juda muhim ekanligi kelib chiqmoqda.

Shuning uchun ham bo'lajak kadrlarda o'zining kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga ularda ijodiy kompetentlikni rivojlantirish ham dolzarblik kasb etadi. Bu orqali ularning

kasbiy faoliyatida kreativlik, zakovatlilik, bilimdonlik va teran tafakkurni namoyon qilish imkoniyati yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo'lajak ta'lim menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirishning tashkiliy va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari Ph.Altbach, K.A.Khoon, R.Shukor, O.Hassan, Z.Saleh, A.Hamzah, R.Ismail, N.V.Demidova, S.V.Sulima, S.A.Drujilov, K.I.Morozova, S.D.Reznik, S.M.Vasin, O.A.Sazikina, O.Bichkova, L.Verbitskaya, V.Kasevich, M.V.Niyazova, V.YE.Varavenko, G.N.Axunova, B.A.Begalov, A.SH.Bekmurodov, S.S.Gulyamov, Sh.N.Zaynutdinov, M.A.Ikramov, N.K.Yo'ldoshev, I.U.Majidov, D.X.Nabiyev, R.I.Nurimbetov, B.X.Raximov, D.N.Raximova, R.A.Raxmanbayeva, M.X.Saidov, A.N.Samadov, T.SH.Shodiyev, Sh.D.Ergashxodjayeva, A.T.Yusupov, Sh.Qurbonovlar tomonidan o'rganilgan va tahlil qilingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ijodkorlik turli darajalariga ega. Bir darajadagi ijodkorlik mavjud bilimlarni qo'llash bilan tavsiflanadi; boshqa darajadagisi esa obyektlar yoki bilim sohalarining odatdagi ko'rinishini o'zgartirishda yangicha yondashuv deb baholanadi.

Tadqiqot muammosiga oid adabiyotlar tahlili asosida ijodkorlikni shaxsda mustaqil fikrlash sifatleri namoyon bo'lishining eng asosiy va faol shakli sifatida quyidagi belgilarga ko'ra tasniflash mumkinligi aniqlandi:

- ijod turi (texnik, texnologik, tashkilotchilik, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, pedagogik, didaktik, kasbiy, aralash);
- ijod darajasi (monoijod, multiijod, megaijod); ijod qamrovi (ixtisoslik, mutaxassislik, bilim sohasi, tarmoqlararo, milliy, mintaqaviy, mintaqalararo, xalqaro);
- ijodning davomiyligi (qisqa muddatli, o'rta muddatli, uzoq muddatli);
- ijodning shakli (innovatsion, ilmiy-tadqiqotchilik, ta'limiy investitsion, aralash);
- umumiy jihatlariga ko'ra (yangi g'oyalarni hayotga tatbiq etish; prinsipial jihatdan yechimlarni ilgari surish; yangilikni amaliy qo'llash);
- yaratilgan ijod mahsulining ma'nosi va murakkabligiga ko'ra (ratsionalizatorlik taklifi; ixtiro; kashfiyot).

Ijodiy faoliyatni tashkil etish, ijodkor shaxsni tarbiyalashni Sh.S.Sharipov psixofiziologik jihatdan bir necha bosqichda amalga oshirishini keltirib o'tadi. Bulardan birinchisi havas – ehtiyojlarning eng sodda shakli bo'lib, inson tomonidan ongli boshqariladi. Ikkinchisi, nisbatan yuqoriroq rivojlanish bosqichi bo'lgan xohish ham inson tomonidan ongli boshqarilib, u shaxsning ma'lum buyum yoki hodisaga nisbatan munosabatlari majmuasini ifodalaydi. Uchinchi, eng murakkab bosqich bo'lgan qiziqish – xohish va u bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar asosida yuzaga keladi. Qiziqish hayotdagi tashqi ta'sirlar, shaxs faoliyati hamda ta'lim-tarbiya jarayoni ta'sirida shakllanib boradi. Bu holatlar psixologik omillar – diqqat, idrok, tushuncha, xotira, fikrlash, tasavvur, sezgi va iroda hislatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatib, shaxsning shakllanishida alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Zehnllilik, topqirlik, sinchkovlik, qiziquvchanlik, izlanuvchanlik sifatleri mustaqil va ijodiy faoliyatni tashkil qilishning asosiy omillari hisoblanadi. Ta'lim jarayonining ushbu asosda tashkil etilishi pedagog va talabalar muloqotini individual va differensial yondashuvga asoslangan innovatsion texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi. Pedagogikada innovatsion yondashuvni joriy etishda ijodkorlik faoliyatining ma'naviy, didaktik, texnologik, tashkilotchilik kabi turlaridan keng foydalanish mumkin.

Ma'naviy ijodkorlik – pedagog va talabalar orasida ma'naviy axloqiy sohada yangi sifatli natija beruvchi takrorlanmas o'ziga xos yondashuvga asoslangan faoliyat turi.

Didaktik ijodkorlik – o'quv materialini tanlash, loyihalash hamda talabalar o'zlashtirishining yangi yo'nalishlarini ishlab chiqishga asoslangan faoliyat turi.

Texnologik ijodkorlik yuqori natijaga erishish imkonini beruvchi yangi tizimlar, jarayonlar va vaziyatlarni izlash hamda yaratish bilan bog'liq faoliyat turi bo'lib, u pedagog va talabalar faoliyatini butunlay qamrab oluvchi ijodkorlikning eng murakkab turi hisoblanadi. Ushbu ijodkorlikning o'ziga hosligi yangilik elementlarini texnologiyaga o'tkazish, uning samaradorligini tubdan o'zgartirishga qaratilganligi bilan izohlanadi.

Tashkilotchilik ijodkorligi – rejalashtirish, nazorat, resurslarni taqsimlash va safarbar qilish, tashqi muhit bilan aloqa, pedagog va talabalarorasiidagi bog'lanishning yangi usullarini yaratishni tashkil qilish va boshqarishdagi ijodkorlikdir. Bizning tadqiqotimizda pedagogikada innovatsion yondashuvni joriy etishda ijodkorlik faoliyatining didaktik ijodkorlik va tashkilotchilik ijodkorligi turlariga tayanish mumkinligini ta'kidlab o'tish zarur.

Ijodkorlik jarayonida maqsaddan tashqari inson xususiyatlarining psixologik (ishonch hosil qilish, munosabat, baho berish, did, urf-odatlar), pedagogik (ta'lim berish va ta'lim olish, tarbiyalash va tarbiyalanganlik) jihatlarini ham hisobga olish kerak.

Ingliz olimi Xeyyes o'rtachadan yuqoriroq intellekt sohibi va ba'zi bir ma'lum ko'nikmalarni egallagan har bir inson hatto buyuk asarni ham yaratishi mumkin degan fikr tarafdori edi. U: "Ijodiy va ijodiy bo'lmagan odamlarni ajratuvchi qandaydir kognitiv qobiliyatlar yo'q," – deb ta'kidlar edi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib bizning ko'pchiligimiz ijod uchun zarur barcha narsalarga ega ekanligimizni, ijodiy fikrlash va ijodiy tasavvurning ancha sodda jarayonlardan iboratligini, barchamiz "shoh asar"lar yarata olishimiz, faqat buning uchun boy tasavvurga ega bo'lishimiz lozimligini anglab yetamiz.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ijodiy faollik, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ijodiy tasavvur qilish eng muhimi, chunki bu haqiqatning yangi, muhim xususiyatlarini kashf qilish imkonini beradi.

Ijodkorlik tushunchasi yangilikning vujudga kelishi, tasavvur yaratgan tasvirlarning o'ziga xosligidir. A.V.Petrovskiy ijodiy tasavvurni quyidagicha tasvirlaydi: «Yaratuvchi tasavvur, yangi o'ylaydigan tasavvurdan farqli o'laroq, asl va qimmatbaho mahsulotlarda yaratilgan yangi tasvirlarni mustaqil ravishda yaratishni nazarda tutadi». Yana bir olim N.Muslimov o'zining tadqiqotlarida: "Rivojlantirish hamda tarbiya individga nisbatan yagona maqsad – uning jamiyatda o'z imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishga qaratilgan holda ta'sir qiladi, biroq rivojlantirish bu vaqtda induvid ega bo'lgan sifatga qaratiladi, tarbiya esa u ega bo'lmagan, lekin jamiyatda qaror topgan axloqiy meyorlarda ko'zda tutilgan sifatlarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Qayd etilgan omillarga zarur darajada ta'sir ko'rsatib, ham shaxsni rivojlantirish, ham uni tarbiyalash masalalarini hal qilishi mumkin" deb o'z mulohazasini bildirgan. Ijodiy tasavvurni rivojlantirishda uning jamiyatda o'z imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishga ta'sir qilib, induvidda ma'lum davrda shakllangan bilimlarni rivojlantirishga qaratilganligini alohida hisobga olish lozim.

Ijtimoiy kreativ faollikni avvalo, insonning jamiyatda, borliqda, mavjud munosabatlar tizimida o'z o'rnini topish istagi ifodasi sifatida e'tirof etish kerak. Mazkur istak ijtimoiy hayot va muhit tomonidan shaxsda dolzarblashganida uni faol harakatga keltiradi. Kreativlik va uni dolzarblashtirish muammolarini o'rgangan A.G.Maslou yozadi: "Agar biz chindan ham farzandlarimizning o'zida mavjud barcha kuchlarni dolzarblashtirishini istasak, biz ularni birdan-bir maqsad, ya'ni ijod orqali tarbiyalashimiz zarur". Faylasuf, psixolog ta'lim-tarbiya, yoshlarni hayotga tayyorlash masalalari ustida fikrlab, bugun dunyo tez o'zgarayotganini, yangi-yangi muammolar paydo bo'layotganini, bunday sharoitda yoshlar o'zini yo'qotib qo'ymaydigan, yuzaga kelgan qiyinchiliklarga tik qaraydigan va yangilikni "faxr va quvonch bilan qarshi oladigan" qilib shakllantirish zarur, degan xulosaga keladi. U yozadi: "Biz dunyoni barqaror va turg'un qilmaydigan, ota-bobolarimiz kabi uni qotirmaydigan, mavhum ertaga ishonch bilan boqadigan, bo'lg'usi o'zgarishlar va o'zgaruvchan hayotga ko'tarinki qaraydigan, hayotga improvizatsiyalashib va moslashib yashaydigan kishilar bo'lishimiz kerak. Bu yangi tipdagi kishidir. Istasangiz uni Geraklit tipidagi inson deyishingiz mumkin". Bu o'rinda gap ijodiy faollikning ichki ruhiy holat, o'zini kashfiyotga baxsh etish, hatto, A.G.Maslou aytgan "ekstaz" darajasidagi ko'rinishi ustida ketayapti. Motiv, stimul va ustanovkalar ana shu psixologik holatga borib taqalmoqda. Demak, ijodda ikki darajadagi bosqich mavjud: birinchisi - "ekstaz" darajasidagi bosqich, ikkinchisi "improvizatsiya va moslashuv" darajasidagi bosqich. Innovatsiya ularning ikkalasini ham o'z ichiga oladi yoki ulardan iboratdir. Birinchisiga insonning betakror yangilik, kashfiyot qilishga intilishi, ikkinchisiga esa boshqalar ixtirolarini olib kirish, o'z muhitiga joriy etish, o'rnatish bilan bog'liq, mohiyatan tashkiliy texnik sa'y-harakatlar kiradi. Keyingisida sir yo'q, uni oddiy aql egalari ham bajarishi mumkin.

XULOSA

Ta'lim va tarbiya jarayonlarida erishilgan natijalarning ko'lamini va dinamikasidan qat'i nazar ta'lim va tarbiya jarayonlarini ularga asosan loyihalashtirish va amalga oshiriladigan ishlarni hamda

ILMIY AXBOROT

qo'llaniladigan metodlarni oldindan rejalashtirish natijalar bo'yicha boshqaruv texnologiyasini tatbiq etishda o'z ifodasini topadi. Bo'lajak ta'lim menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirishda ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarish jarayonlarini innovatsion yondashuv asosida takomillashtirishga yo'naltirilgan motivlashtirish jarayonlarida o'qituvchilar hamda o'quvchilarning keng miqyosda ishtirok etishi zarur bo'lib, mazkur jarayonda ehtiyojlarga ko'ra manfaatlarning uyg'unlashuvi orqali sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit yaratiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hayes J. Cognitive processes in creativity. In J.Glover, R.Ronning, C.Reynolds, Handbook of creativity, -New York: Plenum, 1989.
2. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1996. – 130 с.
3. Комилов Н., Бегматов А., Қуронон М. Рахбар ва ходим. – Тошкент: Академия, 1998. – 15 б
4. Кузьмина Н.В. Методы системного педагогического исследования: Учебное пособие. – Л.: ЛГУ, 1986. – С. 112.
5. Кунц Г., Доннел С. Управление: системный и ситуационный анализ управленческих функций: Пер. с англ. В 2-х т. – М.: Прогресс, 1981. –С. 76.
6. Кухарев Н.В., Савельев Г.В. Управление учебно-воспитательным процессом в школе. – Минск, 1997. – С. 76.
7. Маслоу Г.А. Дальние пределы человеческой психики. Спб.:Изд. гр. Евразия, 1997-С.69.
8. Мескон М.Х., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента / Пер. с англ. – М.: Дело ЛТД, 1995. – 237 с.
9. Шарипов Ш.С. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти. Пед.фан.док.дисс. – Тошкент.: ТДПУ, 2012.- Б.38.